
“Qorbobolar karvoni” loyihasi Qo’shtepa tumanida...

Bayram quvonchi hamma uchun

Yangi yil bayrami yosh-u qari uchun birdek sevimli bayram. Ayniqsa, bolajonlar bu bayramni intiq kutadilar. Ularga bayram quvonchini ulashish esa katta baxt.

Qo’shtepa tumanida start olgan “Qorbobolar karvoni” loyihasi doirasida 100 nafardan ortiq Qorbobo va Qorqizlar ishtirok etishdi.

Bugun Qorbobo va Qorqizlar “Qiyqi” mahallasida joylashgan markaziy “Yangi yil” archasi atrofida, 33 va 46-umumiy o’rta ta’lim maktablarida hamda Qo’shtepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabidagi tadbirlarda, shuningdek, Madaniyat markazida ijtimoiy ximoyaga muhtoj oila farzandlari uchun tashkil etilgan “Yangi yil” bayramida ishtirok etishib, barchaga a’lo kayfiyat ulashishdi.

2024-12-27 16:54:06